



Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'R TARMOQLI ILMIY KONFERENSIYA

YANG O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCE.UZ

INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DAVRIYLIGI: 2018-2023



SPEKTROSKOPIYA -
MATERIYANI BILISH USULI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJUY OLY TALIM MUASSASALARI PROFESSOR-OQTUVIGHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLU TALABALAR



TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



YANVAR
№48

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
21-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-21**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-21**

ТОШКЕНТ-2023



“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 48-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

КИМЁ ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ

1. Qambaraliyeva Risolat Bahriiddin qizi	
“KIMYO – BASHARIYAT BAXTI YASHIRINGAN MO‘JIZALAR MAYDONIDIR”	7
2. Qambaraliyeva Risolat Bahriiddin qizi	
KIMYO DARSLARINI O‘TISHDA QO‘SHIMCHA TAVSIYALAR.....	9



КИМЁ ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ

“KIMYO – BASHARIYAT BAXTI YASHIRINGAN MO‘JIZALAR MAYDONIDIR”

Qambaraliyeva Risolat Bahriiddin qizi

Namangan viloyati Norin tumani
21-maktab kimyo fani o‘qituvchisi

ANNOTASIYA: Kimyo fani naqadar jiddiy, aniq va hayotning ko‘plab sohalarida kerak bo‘lishini e’tirof etmaydigan ma’lumotli odamni topib bo‘lmasa kerak. Ushbu maqolamizda kimyo fanining mo‘jizavii fan ekanligi haqida fikr yuriyamiz

TAYANCH SO‘ZLAR: kimyo, tajriba, amaliy mashg‘ulot, jarayon texnologiyasi

Bashariyatning bir necha ming yillik ko‘hna tarixi dalolat beradiki, juda qadim zamonlardan beri odamlar tevarak-atrofdagi tabiat bilan uzlusiz ravishda muloqotda bo‘lib, unga kimyo vositasida ta’sir etganlar hamda o‘zлari uchun zarur material va mahsulotlarni olganlar, bunga misol tariqasida metall eritish, shisha va sopol, gazlamalar uchun bo‘yoq tayyorlash, teri oshlash, non yopish, hayotni uzaytiradigan univer sal dorini(hayot elektsirini) topishga, oddiy metallarni qimmatbaho metallarga aylantirish, chidamli qurolyarog‘ yaratish uchun chidamli va pishiq metallarni topish masalalari bilan qiziqqanliklarini keltirish mumkin. Juda qadimdan boshlab kimyo inson faoliyatining sohasi hisoblangan, hozirgi tasavvurimizdagi fanga aylanishi uchun ming yillar kerak bo‘ldi.

Kimyoviy bilimlarning ko‘lami juda ham keng, kimyo dunyoni tashkil etgan elementlarni ham, shu elementlardan hosil bo‘lgan har xil oddiy va murakkab moddalarni ham, ularning bir-biriga aylanishiga doir murakkab qonunlarni ham o‘rganadi. Hozirgi kunda kimyo fanining o‘nlab tarmoqlari va uning boshqa fanlar bilan aloqasi, hayotning juda ko‘p tarmoqlarida qo‘llanishi ham ma’lum. Aytib o‘tilgan muammolarni ongli va izchil hal etish uchun esa kimyoviy bilimlarni qunt bilan chuqur o‘rganish zarur bo‘ladi. Buning uchun esa o‘quvchilarda kimyo faniga qiziqish uyg‘otish eng aktual masalalardandir. Kimyo fanini o‘qitishdek jiddiy va mas’uliyatlari vazifani amalga oshirish kimyo muallimining zimmasisiga yuklangan bo‘lgani uchun, har bir o‘qituvchi o‘z fanining fidoiysi b‘lishi, o‘qitish jarayonida mavjud imkoniyatlardan mohirlik bilan foydalanishi, buning uchun esa o‘z ustida muntazam ishlashi lozim bo‘ladi.

Bizning barcha bilimlarimiz tajribadan boshlanishi shubhasizdir. Muallimlarning muhim vazifalaridan biri o‘quvchilardagi kimyo faniga bo‘lgan loqaydlikni bartaraf etish, bu fan ular o‘ylaganidek qiyin va zerikarli bo‘lmasdan, naqadar qiziqarli va go‘zal, jozibador va nafosatli jumboqlarga boy ekanini o‘qitish jarayonida namoyon etish, kimyoning sehrli olamini har tomonlama ochib berishdir. O‘qituvchilar o‘quvchilarning adabiyotga, she’riyatga bo‘lgan qiziqishlarini, turli jozibali muammolarni hal etishga ishtiyoqlari zo‘rligini e’tiborga olib, xilmal-xil qiziqarli va mantiqiy masalalarni nasriy va nazmiy yo‘l bilan bayon etishi, nafis va ravon misralarda tushuntirishi, buning uchun ularning o‘zлari ham she’riyat va riyoziyot muxlisi bo‘lishlari shogirdlarining kimyo faniga bo‘lgan qiziqishini yanada orttiradi. Yuqorida zikr etilgan masalalarni rejali ravishda amalga oshirmoq uchun har bir muallim o‘z o‘quvchilariga kimyo fanidan to‘garak tashkil etishi va muntazam ravishda mashg‘ulotlarni o‘tkazib borishi zarur. To‘garak mashg‘ulotlarida qadimiy allomalarining hayoti va ijodi bilan tanishtirish, ularning kimyo faniga qo‘sghan hissalaridan xabardor etish bilan o‘quvchilarda ajdodlarimizga nisbatan faxrlanish hissini uyg‘otishga harakat qilish lozim. To‘garak mashg‘ulotlarida kimyoning boshqa fanlar – matematika, fizika, biologiya, geografiya, adabiyot va boshqalar bilan aloqasi haqida ma’lumotlar berib borish foydali. Bundan tashqari har bir nazariy bilimimizni amalga tatbik etishni bilish kerak, ya’ni ko‘proq amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish joizdir. Amaliy mashg‘ulotlarni Muallimlarning muhim vazifalaridan biri o‘quvchilardagi kimyo faniga bo‘lgan loqaydlikni bartaraf etish, bu fan ular o‘ylaganidek qiyin va zerikarli bo‘lmasdan, naqadar qiziqarli va go‘zal, jozibador va nafosatli jumboqlarga boy ekanini o‘qitish jarayonida namoyon etish, kimyoning sehrli olamini har tomonlama ochib berishdir. O‘qituvchilar



o‘quvchilarning adabiyotga, she’riyatga bo‘lgan qiziqishlarini, turli jozibali muammolarni hal etishga ishtiyyoqlari zo‘rligini e’tiborga olib, xilma-xil qiziqarli va mantiqiy masalalarni nasriy va nazmiy yo‘l bilan bayon etishi, nafis va ravon misralarda tushuntirishi, buning uchun ularning o‘zlari ham she’riyat va riyoziyot muxlisi bo‘lishlari shogirdlarining kimyo faniga bo‘lgan qiziqishini yanada orttiradi. Yuqorida zikr etilgan masalalarni rejali ravishda amalga oshirmoq uchun har bir muallim o‘z o‘quvchilariga kimyo fanidan to‘garak tashkil etishi va muntazam ravishda mashg‘ulotlarni o‘tkazib borishi zarur. To‘garak mashg‘ulotlarida qadimiy allomalarining hayoti va ijodi bilan tanishtirish, ularning kimyo faniga qo‘shtgan hissalaridan xabardor etish bilan o‘quvchilarda ajdodlarimizga nisbatan faxrlanish hissini uyg‘otishga harakat qilish lozim.

Foydalaniłgan adabiyotlar

1. Абдулхаева М.М., Мардонов Ў.М. Кимё – Т.: “Ўзбекистон”, 2002.
2. Умидли кимёгарлар. – Т., 2009.
3. Хомченко Г.П. Кимё олий ўқув юртларига кирувчилар учун. – Т.: “Ўқитувчи”, 2007.



KIMYO DARSLARINI O'TISHDA QO'SHIMCHA TAVSIYALAR

Qambaraliyeva Risolat Bahriiddin qizi

Namangan voliyati Norin tumani
21-maktab kimyo fani o'qituvchisi

ANNOTASIYA: umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarga kimyo fanini o'qitishning usullari va qo'shimcha tavsiyalar haqida fikrlar yuritamiz

TAYANCH SO'ZLAR: kimyo fani, kimyo va boshqa fanlar bog'liqligi, amaliy topshiriqlar


Kimyo fanini o'qitishdagi eng asosiy vazifalardan biri o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini, o'qitish sifatini oshirish, fan va texnikasini o'rganishga bo'lgan intilishlarini o'stirishdan iborat. O'quvchilarni mazkur fanga qiziqishini va fanning o'quv sifatini oshirishda birinchi navbatda o'qituvchining o'zi mazkur fanni chuqur bilishi, fan yangiliklaridan doimiy ravishda xabardor bo'lishi kerak.

Jumladan, kimyo fanini o'qitilishi bo'yicha o'quv dasturlar qaytadan takomillashtirildi. Amaldagi darslikka qo'shimcha tayyorlangan tavsiyalardan foydalanim darslarni to'liq o'tish imkoniyati yaratiladi. Tavsiyalarda asosan takomillashtirilgan o'quv dasturiga kiritilgan laboratoriya tajribalarining mavzulari, ularni o'tkazish usullari, masalalalar va ularning yechish uchun namunalar kiritilgan. Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida o'quvchilarda hosil bo'lgan amaliy ko'nikmalarining turg'unligiga, laboratoriya ishini tartib bilan olib borilishiga alohida e'tibor beriladi. Dars boshlashdan oldin kerakli asboblar, jihozlar va kimyoviy moddalarni laborant tomonidan plastik tagliklarga tayyorlab qo'yilishi kerak. Agar maktab laboratoriya xonasi kimyoviy moddalar (reakтивлар) bilan to'liq ta'minlanmagan yoki yetishmovchiliklar bo'lsa, u holda kundalik turmushda foydalanimadigan ba'zi kimyoviy moddalar va maishiy mahsulotlarning moslari bilan almashtirib o'tkazish mumkin. Masalan, indikatorlar o'rniga sabzavot, gullar sharbatni va meva sharbatlaridan foydalinish tavsiya etiladi. O'quvchilarni oddiy asboblarni tuzishga va ulardan foydalanim gaz moddalarini olish, xossalarni o'rganish maqsadidagi o'tkaziladigan laboratoriya mashg'ulotida agar laboratoriyanida xlорид kislota va rux moddasi bo'lmasa, kundalik turmushda ishlatiladigan sirka kislota va eski batareyka ustki qoplamasidan foydalinish mumkin. Yoki amaliy topshiriqlarni hayotiy jarayonlarni tahlil etish orqali yechimini topishga o'rgatish kerak. Uni quyidagicha topshiriqlar orqali amalga oshirish mumkin.

1-topshiriq. Rassom-restavratorlarning ta'kidlashicha, moyli bo'yoq yordamida ishlangan rasmlar tezda o'z holatini yo'qotadi. Ayniqsa, vaqt o'ti shi bilan oq bo'yoq kul rangini oladi. Ushbu holat rasmning sifatiga ta'sir qiladi. Bu qanday jarayon? Uning oldini olish mumkinmi?

Amaliy topshiriq yechimi:

✓ Oq pigment - oq qo'rg'oshin. Ushbu modda qo'rg'oshin (II) karbonatdir ($PbCO_3$) Havoda mavjud bo'lgan vodorod sulfidi (H_2S) bilan reaksiyaga kirishib, qora rangdagi qo'rg'oshin (II) sulfid PbS birikmasini hosil qiladi.



✓ Agar to'plangan PbS ni vodorod peroksid bilan ishlov berilsa, unda qo'rg'oshin (II) sulfat hosil bo'ladi.

$PbS + 4H_2O_2 = PbSO_4 + 4H_2O$ shu tarzda, qoraygan yog'li rasmlarni tiklash mumkin. Shu kabi Ijodiy topshiriqlarni o'quvchilarga vazifa sifatida berish mumkin. Masalan:

1. Insoniyatga qadimdan ma'lum bo'lgan elementlarni bilasizmi?
2. Qadimdan ma'lum bo'lgan qotishmani aniqlang?
3. Vietnam va Indoneziyada qaysi metallarning konlari uchraydi?
4. "Susal oltin" nima?
5. Qishdan qo'rjadigan metall qaysi ekanligini toping?
6. "Havoning tarkibi" diagrammasini chizish.
7. "Sanoatda kislorod ishlab chiqarish" mavzusida ma'lumot tayyorlang kabi ijodiy



izlanishga harakatni oshiruvchi amaliy topshiriqlar beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. U.N. Tashkenbayev “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash” Jurnal “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2019
2. I.R.Asqarov, N.X.To‘xtaboyev Kimyo darslik “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent 2017
3. <https://www.google.com>

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 21-ҚИСМ

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиши муддати: 31.01.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Tel: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000